

Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2021- yil
yanvar-noyabr**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
62,2 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
3 695,6
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
10 683,2
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
67,9 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
122,7 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
120,2 %**

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 683,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 683,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	10 683,20	122,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 33,5	112,4
Moliyaviy xizmatlar	1 728,4	126,7
Transport xizmatlari	2 051,1	126,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 906,8	124,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	223,8	112
Savdo xizmatlari	3 449,5	115,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	285,5	128,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	501,3	133,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	218,5	141,8
Ijara xizmatlari	235,1	121,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	317,7	130,1
Shaxsiy xizmatlar	701,3	131,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	123,7	126,3
Boshqa xizmatlar	313,8	133,4

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**19,2 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,2 %**), shuningdek, shaxsiy xizmatlar (**6,6 %**) bo'yicha qayd etildi.




Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **141,8 %**. Nisbatan past ko'rsatkich aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida kuzatilgan – **112,0 %**.




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **2 051,1** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2020- yilning shu davriga nisbatan **126,5** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **19,2** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



- Avtomobil transporti
- Pochta va kuryerlik xizmatlar
- Omborxona va yordamchi transport xizmatlari

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **93,0** % dan yuqorini tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **94,3** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida
hududlarning ulushi, % da
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)**



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 906,8** mlrd. so'mga teng bo'ldi.


2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **124,3** % ga oshdi.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Pop tumanida **131,3** %, Norin tumanida **131,3** %, va Mingbuloq tumanida **127,0** % ga erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz past o'sish sur'ati Chust tumanida **117,1** % ni qayd etdi.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,3 %** ni tashkil etib, bu **3 449,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **2 698,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021-y.
yanvar-
noyabr

3 449,5
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

2 698,4
mlrd. so'm

751,1
mlrd. so'mga

Hajmning
o'sishi

115,1 %

O'sish
sur'ati


99,5 %

2020-y.
yanvar-
noyabr

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda
(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Namangan shahrida qayd etilgan – **970,6** mlrd. so'm.

Shu bilan birga, hududlar orasida To'raqo'rg'on (**311,0** mlrd. so'm), Pop (**267,2** mlrd. so'm), Chust (**240,5** mlrd. so'm), Namangan (**238,9** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**219,4** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**208,2** mlrd. so'm) va Chortoq (**212,2** mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **78,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **15,8 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,5 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi **79,4 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 728,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 338,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- noyabr oylarida ularning ulushi **16,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **389,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **126,6** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,6 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat

Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- y.
yanvar-noyabr

459,5
mlrd. so'm

109,5%

5,8 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

74,0 mlrd. so'mga

2021- y.
yanvar-noyabr

533,5
mlrd. so'm

112,4 %

5,0 %


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **91,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-noyabr



2021- y.
yanvar-noyabr



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (**114,4 %**), Chortoq (**112,4 %**) va Uchqo'rg'on (**112,2 %**) tumanlarida, shuningdek, Namangan shahrida (**114,9 %**) qayd etildi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da



2020- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turlarining nisbatan yuqori bo'lmagan darajadagi o'sishi Mingbuloq (**107,2 %**) tumanida qayd etilgan.


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **501,3 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **133,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Pop (**23,3** mlrd. so'm), Chust (**15,6** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**14,3** mlrd. so'm) va Namangan shahrida (**351,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish Chust **160,2 %**, Norin **159,6 %**, Yangiqo'rg'on **154,2 %**, Uchqo'rg'on **150,8 %**, To'raqo'rg'on **148,1 %** tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish
sur'atlarini taqqoslash, % da**



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-noyabr




218,5 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,0 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

141,8 %




O'sish sur'ati


2020- y.
Yanvar-noyabr



138,5 mlrd. so'm



1,7 %



87,0 %


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi
xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da

2021- y. yanvar-noyabr

Mingbuloq



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida
xizmatlarning yuqori o'sishi To'raqo'rg'on tumanida **188,9** % ni tashkil etdi.

Nisbatan past o'sish sur'ati Mingbuloq tumanida kuzatildi – **114,5** %.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

171,7 mlrd.
so'm

223,8 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2020- y.
yanvar-noyabr

2021- y.
yanvar-noyabr

97,1 %

112,0 %

O'sish
sur'ati



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar


2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **52,1** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2020- y.
Yanvar-
noyabr

2021- y.
Yanvar-
noyabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **77,8** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,5** % ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Namangan viloyati	10 683,2	122,7	103,5
Namangan sh.	4 174,0	124,0	103,8
tumanlar:			
Mingbuloq	460,7	123,1	102,7
Kosonsoy	556,1	120,6	103,3
Namangan t.	604,1	123,0	103,9
Norin	490,8	123,9	104,4
Pop	730,7	122,9	103,3
To'raqo'rg'on	716,9	123,7	100,1
Uychi	566,5	118,7	104,1
Uchqo'rg'on	572,2	119,9	102,7
Chortoq	610,9	121,8	103,2
Chust	679,2	121,4	103,3
Yangiqo'rg'on	521,0	120,7	104,9


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **39,1** % (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **38,6** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **4,3** % (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **4,3** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

3 695,6
ming so'm

870,5 ming
so'mga

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 695,6** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 825,1**ming so'mni tashkil etgan.

120,2 %

O'sish sur'ati

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,4 %** da qayd etilgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

20 793
birlik



1 458
birlikka
o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

107,6 %



7,2 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,2 %**, sanoat **21,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **8,1 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,3 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,1 %** ni, sanoat **21,3 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **8,2 %** ni va qurilish **7,4 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**48,3** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **7,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,3** % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,3** % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,4** % ga teng bo'ldi.

Boshqa turdagi xizmatlar – **33,6** % ni tashkil etdi.

Savdo – 48,3

Boshqa turdagi
xizmatlar – 33,6

Yashash va ovqatlanish
– 7,1

Tashish va saqlash – 5,3

Axborot va aloqa – 2,4

Sog'liqni saqlash – 3,3


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,9 %** ni tashkil etdi

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **86,4 %** ga to'g'ri keldi.

1- dekabr holatiga

2020- y.

2021- y.

85,8 %

86,4 %

Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00